Yondosh mavzu:
Kutubxona

Ikki xonali sonlarni qo'shish.






**1.** Savollarga javob berish uchun ifodalar tuzing va ularni taqqoslang. Ularda nima umumiylik bor va nimasi bilan farq qiladi?

a) Maktab elektron kutubxonasida 47 ta hikoya kitob va 15 ta ertak kitob bor. Kutubxonada jami nechta kitob bor?

b) Sinf kutubxonasida 47 ta rasmli kitob va 15 ta rasmsiz kitob bor. Rasmli kitoblar qancha ko'p?

**2.** Yechishni tushuntiring.






**2 o'nl. 8 birl. + 1 o'nl. 4 birl. = 3 o'nl. 12 birl. =**
**= 3 o'nl. + 1 o'nl. 2 birl. = 4 o'nl. 2 birl.**

**3.** Maktab kutubxonasiga 2-"A" sinfidan 35 nafar o'quvchi, 2-"B" sinfidan ulardan 2 nafar ko'p o'quvchi a'zo bo'ldi. Jami necha nafar 2-sinf o'quvchisi kutubxonaga a'zo bo'ldi?

**4.** Ushbu diagramma (grafik)ni o‘rganib oling.
Berilgan ma’lumotlar asosida masala tuzing.




**5.** Misollarni grafik usulida yeching.

45 + 16 34 + 25 28 + 25 55 + 29

**6.** Namuna bo‘yicha hisoblang.

45 cm + 26 cm = 71 cm = 7 dm 1 cm

| | | |
|---|---|---|
| 26 cm + 65 cm | 37 cm + 25 cm | 66 cm + 27 cm |
| 19 cm + 16 cm | 36 cm + 18 cm | 29 cm + 29 cm |

**7.** Chizma bo‘yicha masala o‘ylab toping va uni yeching.




CHOP ETISH UCHUN EMAS